

- d) hujayraning shakli, donador sitoplazma va yadroga e'tibor bering.
- e) o'simlik va hayvon hujayralarining farqini aniqlang.



18- §. 3- laboratoriya mashg'uloti

O'simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmolizni kuzatish

Ishning maqsadi. Elodeya o'simligi hujayrasida plazmoliz va deplazmolizni o'rganish.

Hujayra shirasida suvda eriydigan birikmalar ko'p bo'ladi. Agar biz hujayrani tuzli eritmaga botirsak, hujayra tarkibidagi suv, hujayra tashqarisiga chiqa boshlaydi. Bunda hujayra tarangligi yo'qolib hujayra pardasi asta-sekin burisha boshlaydi. Bu hodisa **plazmoliz** deb ataladi. Agar shu hujayra yana toza suvga botirilsa, u o'zining avvalgi holatiga qaytadi, ya'ni **deplazmoliz** hodisasi ro'y beradi.

Kerakli jihozlar. Buyum va qoplovchi oyna, qizil piyoz, elodeya 1 m NaCl eritmasi, mikroskop, pinset.

Ishning borishi. 1. Elodeya epidermisidan o'tkir pichoq bilan 3x4 mm qalinlikda bo'lakchalar tayyorlanadi. Pinset yordamida uni ajratib olib, predmet oynasidagi bir tomchi suvga botiriladi. Qoplovchi oyna bilan yopib, mikroskop ostida kuzatiladi. Hujayra holatining rasmini chizing.

2. Buyum oynasining bir tomoniga osh tuzi eritmasidan bir tomchi tomiziladi. Ikkinchi tomondan esa filtr qog'oz yordamida qoplovchi oyna tagidan suv tortib olinadi. 5–7 daqiqadan so'ng hujayra pardasi torayib, burisha boshlaydi. Bunda plazmoliz ro'y beradi.

3. Buyum oynasidagi osh tuzi eritmasi yana yuqorida ko'rsatilgan yo'l bilan toza suvga almashtiriladi. 5–7 daqiqadan keyin hujayra dastlabki holatiga qaytadi. Bu deplazmoliz hodisasi bilan bog'liq.